

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 5/6 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизиллович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Умарханова Дилдора Шарипхановна</i> ЕВРОПА МИНТАҚАСИДА ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ	9-14
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLAR O'RTASIDAGI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABARTLAR.....	15-26
<i>Собирова Нозимахон</i> СИТУАЦИОННОЕ ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ НЕДОБРОСОВЕСТНОСТИ: РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ, МОТИВАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ	27-36
<i>Йўлдошев Азизжон Эргаш ўғли</i> ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ ИШЛАРИНИ БОШҚАРИШДА ИШТИРОК ЭТИШ ҲУҚУҚИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ	37-45
<i>Турсунов Ойбек</i> ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ВОДНОГО ПРАВА	46-53
<i>Ismoilova Aziza Alisher qizi</i> MEHNAT MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA GENDER HUQUQIY EKSPERTIZA AHAMIYATI VA HUQUQIY MUAMMOLARI	54-60
<i>Safarova Shaxlo Pulatovna</i> YANGI O'ZBEKISTONNING HOZIRGI RIVOJLANISH DAVRIO'ZGARISHLARINING INSON HUQUQLARI TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJIGA TA'SIRI	61-67
<i>Akbaralieva Mukhayo Karamatullo kizi</i> CRIMINAL LIABILITY FOR KIDNAPPING IN FOREIGN COUNTRIES	68-71
<i>Valijonov Daler Dilshodovich</i> PROBLEMS OF COMBATING CORRUPTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND PRACTICE OF EU MEMBERS	72-76
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i> DAVLAT FUNKSIYALARI VA DAVLAT MOLIIYASI O'ZARO NISBATINING HUQUQIY MASALALARI	77-92
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> VAKILLIK INSTITUTINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI	93-103
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> НАСЛЕДОВАНИЕ ПРАВ НА ОБЪЕКТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ...	104-109
<i>Рахмонова Мохичехра Нодирбек кизи</i> СУВЕРЕНИТЕТ И ЮРИСДИКЦИЯ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ	110-118
<i>Худайбердиева Шоҳиста Акмал қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ РЕСПУБЛИКАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК ВА	

ҲАМКОРЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР	119-129
---	---------

Alijonov Ayubjon Qobiljon o'g'li

RAQAMLI IQTISODIY HAMKORLIKNI XALQARO TARTIBGA SOLISH	130-136
---	---------

Fayzulloyev Shohijaxon Jobirovich

XALQARO SAVDODA NIZOLARNI HAL QILISH KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	137-141
--	---------

Fayzullaeva Shakhlo Jumaniyaz kizi

ISSUES OF ONLINE DISPUTE RESOLUTION UNDER THE WTO	142-147
---	---------

Raimov Elbek Bahodirovich

OLIY TA'LIM TASHKILOTINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQIY MAQOMI.....	148-152
---	---------

Alieva Kamola Ravshanovna

OVERCOMING LEGAL BARRIERS TO ENHANCE WOMEN'S POLITICAL PARTICIPATION IN UZBEKISTAN	153-161
--	---------

Juraeva Asal

MECHANISM OF ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN	162-166
---	---------

Rakhmonov Otabek

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE REORGANIZATION OF JOINT STOCK COMPANIES	167-171
--	---------

Айбек Якубов

ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕЖДУНАРОДНО-ЧАСТНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАМКАХ ВСТУПЛЕНИЯ ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ	172-178
--	---------

Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li

MA'MURIY SUD Hujjatlarini ijroga qaratishning huquqiy tartibi	179-184
---	---------

07.00.00 – TARIX FANLARI

Elmurotov Ortiq Oltiboy o'g'li

TURONNING YUNON-MAKEDONLARGA QARAMLIK DAVRI ME'MORCHILIK AN'ANALARI.....	185-192
--	---------

Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li

URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING TAHLILI	193-199
---	---------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Imamov Javokhir

LEVERAGING INTERNATIONAL BEST PRACTICES FOR ESTABLISHING MODERN TECHNOLOGICAL INDUSTRIAL ZONES IN UZBEKISTAN	200-203
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna

"TAHDID" FENOMENI VA UNING SIYOSIY JIHATLARI	204-209
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Bawetdinov Mukhammeddin

UZAQBAY PIRJANOVNING PEYZAJ LIRIKASI 210-215

Соҳибова Зарнигор

ПЕЙЗАЖ ЛИРИКАСИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ (ЗУЛФИЯ ИЖОДИ МИСОЛИДА) 216-219

Jonridova Sanobar Sherali qizi

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IMPLIKATSION BIRLIKLAR TADQIQI 220-224

Sharipova Mokhidil

PHONETIC CHARACTERISTICS OF ONOMATOPOEIC WORDS IN ENGLISH

LANGUAGE..... 225-231

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Abdurasul Abdurahimovich

PROFESSIONAL VA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPAS-3D
AVTOMATLASHGAN LOYIHALASH TIZIMINI QO'LLASH 232-237

Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY
QARASHLARI 238-245

Qalandarova Maxliyo

MOLIYAVIY SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA O'QUVCHILARINING O'QUVBILISH
FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH 246-251

Чинқулова Гулмеҳра Баҳроновна

ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ..... 252-258

Ibragimova Venera Azadovna

TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARI..... 259-264

Turgunov Shuxratjon Nozimjon o'g'li

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORATNING FONETIK VA MORFOLOGIK SATHLARIDA
IFODALANISHI 265-269

Received: 10 August 2024
Accepted: 15 August 2024
Published: 25 August 2024

Article / Original Paper

LEGAL STATUS OF THE HIGHER EDUCATION ORGANIZATION AS A LEGAL ENTITY

Raimov Elbek Bahodirovich

National University of Uzbekistan “Legal sciences” senior teacher of the department

Abstract. The main elements of the legal status of higher education organizations as a legal entity are justified based on the legal basis of participation in civil-legal relations as a subject. In addition, legal capacity of legal entities, features of their organizational and legal form, issues of liability as a legal entity for non-fulfilment of obligations by higher education organizations were studied.

Keywords: Branches of foreign educational organizations, License, Subsidiary liability, Founding documents, General legal capacity, Special legal capacity, Educational services, Private institutions.

OLIY TA'LIM TASHKILOTINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQIY MAQOMI

Raimov Elbek Bahodirovich

O'zbekiston Milliy universiteti “Huquqiy fanlar” kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oliy ta'lim tashkilotlarining yuridik shaxs sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda subyekt sifatida ishtirok etishining huquqiy asoslariga tayangan holda, huquqiy maqomining asosiy elementlari huquqiy asoslantirilgan. Bundan tashqari, yuridik shaxslarning huquq layoqati, tashkiliy-huquqiy shaklining xususiyatlari, oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan Majburiyatlarni bajarmaganlik holati uchun yuridik shaxs sifatida javobgarlik masalalari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Xorijiy davlatlar ta'lim tashkilotlarining filiallari, Litsenziya, Subsidiar javobgarlik, Ta'xis hujjatlari, Umumiy huquq layoqati, Maxsus huquq layoqati, Ta'lim xizmatlari, Xususiy muassasalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI6Y2024N18>

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 29-moddasida ta'lim tashkilotlarining huquqiy maqomi belgilangan [1]. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari, shuningdek xorijiy davlatlar ta'lim tashkilotlarining filiallari yuridik shaxs maqomi bilan tashkil etiladi. Nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziya olingan kundan e'tiboran ta'lim faoliyati bilan shug'ullanishga haqli. Ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini ustav va (yoki) boshqa ta'xis hujjatlari asosida yuritadi.

Fuqarolik kodeksi 40-moddasiga ko'ra, yuridik shaxslar foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo'lmagan tashkilot) kabi turlarga bo'linadi [2].

Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxona va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin.

Shu o'rinda oliy ta'lim tashkilotlari qanday turdagi yuridik shaxslar tarkibiga kirishi haqida o'rinli savol tug'iladi.

Ta'lim tashkilotlari o'z huquqiy maqomiga ko'ra yuridik shaxs sifatida tashkil qilinadi. Ta'lim tashkiloti bu idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasining maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, maktabdan tashqari, oliy, oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi ilmiy va ta'lim tashkilotlar, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlari hisoblanadi [3] (Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom 1-bandi).

Fuqarolik kodeksiga asosan yuridik shaxslar foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo'lmagan tashkilot) kabi turlarga bo'linadi.

Yuridik shaxslar, Fuqarolik kodeksining 41-moddasiga ko'ra, umumiy hamda maxsus huquq layoqatiga ega bo'ladi. Huquq layoqati yuridik shaxs tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi va uni tugatish yakunlangan paytdan e'tiboran tugatiladi.

Umumiy (universal) huquq layoqati bu - qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyat turi bilan shug'ullanishga haqli bo'lish va tegishli ravishda qonunda va boshqa me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan barcha fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini olish layoqatidir.

Maxsus huquq layoqati – bu yuridik shaxslarning fuqarolik huquqlari va burchlari ularning ustav faoliyatiga mos kelishi hisoblanadi. Maxsus huquq layoqiyati barcha notijorat tashkilotlariga taalluqli hisoblanadi.

Yuridik shaxs qonun hujjatida ro'yxati belgilab qo'yilgan ayrim faoliyat turlari bilan faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosidagina shug'ullanishi mumkin (Fuqarolik kodeksi 41-moddasi).

Litsenziya - jismoniy yoki yuridik shaxsga beriladigan, litsenziya talablari va shartlariga majburiy ravishda rioya etilgan taqdirda faoliyatning litsenziyalanadigan turini yoki uning kichik turini amalga oshirish huquqini beruvchi hujjat [4].

Qonunchilikka ko'ra faoliyatning litsenziyalanadigan turlari jumlasiga amalga oshirilishi fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, sog'lig'iga, jamoat xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan hamda tartibga solib turilishi litsenziyalashdan tashqari usullar bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyat turlari kiradi [5, B.107].

Litsenziyalanadigan faoliyat turlari "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Mazkur qonunda quyidagi ta'lim faoliyat turlari litsenziyalanishi lozimligi belgilangan:

- Maktabgacha ta'lim xizmatlari (bundan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xizmatlari mustasno);
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim xizmatlari;

- professional ta'lim xizmatlari;
- oliy ta'lim xizmatlari;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim xizmatlari;
- avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari

haydovchilarini tayyorlash hamda qayta tayyorlash.

Mazkur faoliyat turlarini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan litsenziya taqdim qilinadi. Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari sohasidagi huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari miqdorida jarima qo'llaniladi.

Ta'lim tashkilotlari tashkil qilinish jarayoniga ko'ra:

- Davlat;
- Nodavlat ta'lim tashkilotlariga bo'linadi.

Davlat ta'lim muassasasi — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa hisoblanadi ("Ta'lim to'g'risida"gi qonun 3-moddasi). Fuqarolik kodeksi 76-moddasiga binonan, boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladigan tashkilot muassasa hisoblanadi.

Fuqarolik qonunchiligini tahlil qilish natijasida yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli sifatida muassasaning quyidagi xususiyatlarini ajratish mumkin:

- 1) maxsus huquqiy layoqatga ega;
- 2) bitta ta'sischi tomonidan tashkil qilinadi;
- 3) ustav ta'sis hujjati hisoblanadi;
- 4) a'zolikka asoslanmagan tashkilotlar guruhiga mansub;
- 5) mulkdor tomonidan to'liq yoki qisman moliyalashtiriladi;

6) ta'sischilari muassasa mulkiga egalik huquqiga ega bo'lgan va muassasaning o'zi operativ boshqaruv huquqi asosida unga birlashtirilgan mulkka ega bo'lgan tashkilotlar guruhiga mansub;

7) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan daromadlar, shuningdek ushbu daromadlar hisobidan sotib olingan mol-mulk muassasaning mustaqil tasarrufiga o'tkaziladi;

8) unga birlashtirilgan mol-mulkni va unga smeta bo'yicha ajratilgan mablag'lar hisobidan sotib olingan mol-mulkni begonalashtirishga yoki boshqa yo'l bilan tasarruf etishga haqli emas;

9) o'z majburiyatlari bo'yicha o'z ixtiyorida bo'lgan pul mablag'lari bilan javob beradi; agar ular yetarli bo'lmasa, tegishli mol-mulk egasi uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi;

10) bankrot deb topilmaydi;

11) davlat va boshqa muassasalarning ayrim turlari huquqiy holatining xususiyatlari qonun va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

Asosiy faoliyati noishlab chiqarish sohasiga taalluqli bo'lgan notijorat tashkilotlarning ushbu turi ikki tipda bo'ladi: bu davlat va xususiy muassasalar. Umumiy qoidaga ko'ra, davlat muassasalariga boshqaruv tashkilotlari, tibbiyot muassasalari, maorif, ta'lim va madaniyat muassasalari, huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari va h.k. kiradi. Ushbu tashkilotlar,

boshqaruv, huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlaridan tashqari, xususiy ham bo'lishlari mumkin, agar ularning ta'sischilari sifatida jismoniy yoki nodavlat yuridik shaxslar qatnashsalar. masalan, amaliyotda xususiy bolalar bog'cha, maktab, muzeylarni va h.k. tuzish holatlari tez-tez uchrab turadi [5, B.240].

Majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik masalasida muassasa o'z ixtiyoridagi pul mablag'lari bilan javob beradi, agar mazkur mablag'lar yetarli bo'lmasa, tegishli mol-mulkning egasi uning majburiyatlari yuzasidan subsidiar javobgar bo'ladi. Subsidiar javobgarlik bu - qo'shimcha ravishda javobgarlik hisoblanib, qonunchilik yoki majburiyat shartlariga muvofiq asosiy qarzdor bo'lgan boshqa shaxsning javobgarligiga qo'shimcha ravishda javobgar bo'lgan (subsidiar javobgarlik) shaxsga talablar qo'yishdan oldin kreditor asosiy qarzdorga talab qo'yishi kerak. Agar asosiy qarzdor kreditorning talabini qondirishdan bosh tortsa yoki kreditor undan qo'yilgan talabga oqilona muddatda javob olmagan bo'lsa, bu talab subsidiar javobgar bo'lgan shaxsga qo'yilishi mumkin (Fuqarolik kodeksi 329-moddasi).

Yuqoridagilardan shuni anglashimiz mumkinki, davlat ta'lim tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakli muassasa shakli hisoblanadi. Bu shaklning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

- boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshiradi;
- mulkdor tomonidan tashkil etiladi va to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladi;
- o'z majburiyatlari bo'yicha ixtiyoridagi pul mablag'lari yetarli bo'lmasa, tegishli mol-mulkning egasi uning majburiyatlari yuzasidan subsidiar javobgar bo'ladi.

Ushbu tashkiliy-huquqiy quyidagi ijobiy tavsiflarga ega. Birinchidan, asosiy faoliyat maqsadi foyda olish bo'lmaganligi sababli muassasa o'z maqsadlarining asosiy yo'nalishini ta'sis hujjatlarida belgilab qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun belgilaydi. Ikkinchidan, erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida muassasa tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar narxlarining ko'tarilib ketishini oldini oladi. Chunki u mulkdor tomonidan to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakli borasida qonun chiqaruvchi aniq bir cheklov o'rnatmagan. Ba'zi hollarda bu qonunda to'g'ridan to'g'ri belgilab berilishi mumkin. Masalan, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti shaklidagi ta'lim xizmatlari yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi (Ta'lim to'g'risidagi Qonun 29-moddasi 2-qismi). "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasida keltirilishicha, nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi. Mazkur Qonunning 13-moddasida ijtimoiy, madaniy va boshqa notijorat tuzdagi vazifalarni amalga oshirish uchun jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan nodavlat notijorat tashkiloti muassasa deb e'tirof etiladi deb belgilab qo'yilgan. Ta'lim faoliyati ijtimoiy faoliyat turlariga kirganligi bois nodavlat ta'lim tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakli ham muassasa shaklida barpo etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ammo nodavlat ta'lim tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakli borasida qonunchilikda aniq bir ko'rsatma va taqiq mavjud emas.

Demak, nodavlat ta'lim tashkilotlari, shu jumladan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari tijoratchi bo'lgan hamda tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxlardan tashkil qilinishi mumkin.

Yuridik shaxlar huquq layoqati turiga ko'ra umumiy (universal) va maxsus huquq layoqatiga ega bo'lishi haqida yuqorida gaplashdik. Tijorat tashkilotlari (unitar korxonadan tashqari) universal (umumiy) huquq layoqatiga, tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar maxsus huquq layoqatiga ega bo'ladi. Ba'zi bir faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun litsenziya, ruxsatnoma yoki xabardor qilish tartibiga rioya qilinishi lozim. Shu o'rinda savol vujudga keladi? Oliy ta'lim tashkilotlari qanday huquq layoqatiga ega bo'ladi?

Yuridik shaxs, Fuqarolik kodeksi 40-moddasiga muvofiq, o'z maqsadiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: a) foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan; b) foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan.

Faoliyat turiga ko'ra, a) qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyat turi bilan shug'ullanish; b) ta'sis hujjatlari bilan belgilab berilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanish kabi turlarga bo'linadi. Qonun, litsenziya va ta'sis hujjatlari bilan cheklanmagan huquqiy layoqat - umumiy huquqiy layoqat; qonun bilan cheklangan huquqiy layoqat-maxsus huquqiy layoqat; ta'sis hujjatlari yoki litsenziya bilan cheklangan huquqiy layoqat - cheklangan huquqiy layoqat deb hisoblanishi mumkin.

Shunga ko'ra, oliy ta'lim tashkilotlarining huquq layoqati qaysi guruhga mansubligini aniqlaymiz. Fuqarolik kodeksining 41-moddasiga ko'ra, yuridik shaxs o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi. Demak, yuridik shaxsning faoliyat maqsadlari uning ta'sis hujjatlari bilan belgilanar ekan. Ta'sis hujjatlari jumlasiga ustav, ta'sis shartnomasi va nizomlarni kiritishimiz mumkin.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>;
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 01.03.1997 // URL: <https://lex.uz/docs/-111189>;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.06.2019-yildagi "Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 470-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-4367782>;
4. O'zbekiston Respublikasining 14.07.2021 yildagi "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'RQ-701-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-5511879>;
5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi qism) Adliya vazirligi. – T.: «Vektor-Press», 2010. – 816 b.–(Professional (malakali) sharhlar).

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/6 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).